
“PIYOZCHILIK” MAHALLASIDA KENG HAJMDAGI QURILISH-TA’MIRLASH, OBODONLASHTIRISH ISHLARI AMALGA OSHIRILMOQDA

“Piyozchilik” mahalla fuqarolar yig‘inida Prezidentimiz tashabbuslariga asosan amalga oshirilayotgan “Obod xonadon, obod ko‘cha, obod mahalla” davlat dasturi bo‘yicha keng ko‘lamdagi buyondkorlik ishlari olib borilmoqda.

Ayni kunlarda ushbu mahallada daraxtlarga shakl berish, oqlash, uylarning fasad qismlarini ta‘mirlash, bezatish, gulzorlar barpo etish ishlari uyushqoqlikda bajarilmoqda.

Aniq raqamlar asosida aytadigan bo‘lsak, “Obod xonadon” mezonlari asosida uy-joyi ta‘mirga muhtoj va o‘ta og‘ir sharoitda yashayotgan oilalarning 12 ta turar joylari ta‘mirlab berilmoqda. Shuningdek, “Obod ko‘cha” mezonlari asosida 8 ta ko‘chada asfaltlash, shag‘allashirish va betonlash ishlari amalga oshiriladi. 2 km ichimlik suvi tarmog‘i tortilib, 115 ta xonadon ichimlik suvi bilan ta‘minlanadi.

2024-02-10 13:54:20